

**XORAZM XONLIGINING DAVLAT BOSHQARUVI VA SUD TIZIMI**

*Toshkent amaliy fanlar universiteti  
Tarix 2-bosqich talabasi  
Fayzullajonova Ruhshona  
ruxshonafayzullajonova@gmail.com*

**Anotasiya**

Mazkur maqolada Xorazm xonligining davlat boshqaruvi va sud tizimini haqida batafsil yoritib berilgan. Unda xonlikda siyosiy tuzilma, boshqaruv organlari, uning vakolatlari hamda sud tizimining shakllanishi va faoliyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** qolxon, xon, to‘ra, inoq, mehtar, qo‘shebegi, otaliq, biy, mirza, parvonachi, a’lam, muftiy, mudarris.

**Annotation**

This article provides a detailed overview of the state administration and judicial system of the Khiva Khanate. It highlights the political structure, governing bodies, their authorities, as well as the formation and functioning of the judicial system within the khanate.

**Keywords:** qolkhan, khan, tora, inoq, mehtar, qushbegi, ataliq, biy, mirza, parvonachi, a’lam, mufti, mudarris.

Boshqa xonliklarda bo‘lgani singari Xorazm xonligida ham davlat boshqaruvi va sud tizimi o‘ziga xos bo‘lgan. XVI asr Xorazmda davlat boshqaruvi va hududiy-muriy qurulmasi an’anaviy jihatlarga ega edi. Shu bilan birga davlat boshqaruvida ko‘chmanchi dasht tartib-qoidalari bilan mahalliy o‘troq davlatchilik an’analarining qorishuvi yuz bergan. Unga ko‘ra, oliy hukmdor hisoblangan xon hokimiyyati vorisiylik asosida Chingiziy sultonlarga o‘tar edi. Urug‘ning kattasi uning boshlig‘i hisoblangan. Hukmdor vafot etishi bilan taxtni uning o‘g‘li emas, balki undan keyingi ukasi, faqat akalari bo‘limgan taqdirdagina xonning katta o‘g‘li egallagan. Elbarsxondan so‘ng ukasi Bilbarsning o‘g‘li Sulton hoji, So‘fiyonxondan so‘ng ukasi Bo‘chg‘axonning taxtga o‘tirishi bunga misoldir. Shu bilan birga, oliy hukmdor hayotlik vaqtida valiahd, ya’ni taxt vorisini tayinlab qo‘yish hamda xorazmshohlarning davlatchilik an’nalarida mavjud bo‘lgan ko‘pgina mansab va lavozimlar, ularning vakolatlari ma’lum darajada o‘z ahamiyatini saqlab qolgan[1]. Taxt vorisi qolxon (kolxon) deb, xonadonning boshqa a’zolari sulton deb atalgan. “Musaxxit al-hilod”da shayboniylar davrida o‘rnatilgan boshqaruv tartibi haqida ma’lumot berilar ekan, yosh jihatdan hammadan ulug‘ bo‘lganini xon atab xonlik mansabiga ko‘tarishgani hamda yosh jihatdan boshqalardan katta hisoblangan sulton qone’a, ya’ni valiahd etib tayinlangani ko‘rsatib o‘tilgan. Xorazmda qo‘g‘irotlar hukmronligi davriga kelib manbalarda yosh

shahzodalarga nisbatan to‘ra unvoni qo‘llangan. Xorazm xonligida bo‘lgan Eron qo‘mondoni Ismoil Mirnanja ham o‘z “Xotiralari”da (XIX asr) turkistonliklar o‘z podshohlarini xon, shahzodani to‘ra, agar u valiahd bo‘lsa, inoq deb atashlarini ko‘rsatib o‘tgan. Sayyohlarning yozishicha, turkistonliklar o‘z podshohlarini “xon”, shahzodani “to‘ra”, agar u valiahd bo‘lsa “inoq” deb ataydilar. Xon xizmatidagi eng mo‘tabar shaxslarga “inoq” valiahd, mehtar, qushbegi va devonbegi kiradi.

Nigora Allayevaning ta’kidlashicha, taxt vorisini tayinlashda istisno holatlar ham bo‘lgan. Bunda taxt vorisining yoshidan tashqari uning boshqaruvi qobiliyati, shuningdek, ma’naviy va ruhiy-jismoniy holati hamda harbiy shijoatiga alohida e’tibor berilgan. Xususan, Dinmuhammad ibn Avaneshxonning ikki o‘g‘li bo‘lib, Poyanda Muharumad yosh jihatdan katta bo‘lishiga qaramay, kichik o‘g‘li Abul Muhammad otasi hayotligidayoq qolxon (kolxon) deb e’lon qilingan edi[2]. Manbadagi ma’lumotlar to‘ngich o‘g‘ilning aqliy noqisligi, jismoniy zaifligi tufayli shariat hukmi bilan ana shunday istisnoga sabab bo‘lganligini ko‘rsatadi. Qo‘ng‘irotlar sulolasidavrida valiahdlik maqomi inoq unvoni bilan hamohang bo‘lib bordi. Xususan, Xorazm xonligida Hazorasp hokimi sulola vakili bo‘lgan hamda u inoq deb yuritilgan. Mazkur inoq valiahd maqomida bo‘lgan. Yozilmagan qoidaga ko‘ra, strategik (chegaraoldi) jihatdan muhim ahamiyat kasb etuvchi bu shahar hokimligiga, odatda, xon o‘rnini kelajakda egallashi mumkin bo‘lgan kishi tayinlangan (Buxoro xonligida so‘nggi ashtarxoniyalar kukmronligi davrida Balx mana shunday maqomga ega shahar edi). Xon xonadonining boshqaruvi ishiga layoqatli vakillariga turli viloyat va shahar yoki ma’lum bir hududiy birlik mulk qilib berilgan. Shu asosda XVI asr boshida mamlakatni mayda uluslarga bo‘lib boshqarish, ya’ni tarixoshunoslikda “apanaj”, “ulus” yoki “udel” tizimi deb atalgan davlat boshqaruvi joriy etilgan. Xususan, Elbarsxon va inisi Bilbars sulton Vazir va Urganchni qo‘lga kiritgach, Yodgorxon xonadoniga mansub amakivachchalarini huzurlariga taklif qilib, Urganchni amakisi Amnakxonning farzandlariga topshirishgan. Urganch, Kat, Vazir, Yangi Shahar, Tirsak, Xiva, Hazorasp va unga tutash hududlar hukmron sulola vakillarining mulki hisoblangan. Xonning qarindoshlari katta-kichikligi va unga uzoq yoki yaqinligiga qarab ayrim shahar hamda viloyatlarni boshqarish huquqini olganlar. Qarindoshlar kam bo‘lsa, ularning har biriga bir nechta shahar tekkan, agar qarindoshlar ko‘payib ketsa, daromadiga qarab shaharning yarmini olishga ham majbur bo‘lganlar. Jumladan, Xiva shahri XVI asr ikkinchi yarmi boshlarida Po‘lod sulton va Temur sultonning mulki bo‘lgan. Xonga yaqin qarindoshlar iqtisodiy va strategik jihatdan muhimroq hududlarni qo‘lga kiritganlar. Albatta, xonlarning almashinib turishi bilan turli hududlarga egalik qilish huquqi ham o‘zgarib turgan. XVIII asrda Xorazmda muayyan bir sulola hukmron emas edi. Chingiziyalar sulolasiga mansub ba’zi shaxslar Xivaga chaqirilib xonlik taxtiga ko‘tarilgan bo‘lsa-da, amalda hokimiyat qo‘ng‘irotlar sulolasidan bo‘lgan inoqlar qo‘lida bo‘lgan. 1804-yildan boshlab faqat qo‘ng‘irotlar

sulolası vakillari Xorazmda xon bo‘lganlar. Shuni ta’kidlash joizki, Xorazm qo‘ng‘irotlari o‘zlarini Buxoro mang‘itlari kabi “amir” deb emas, balki “xon” deb atay boshlagan. Ular buning o‘zlarini uchun qonuniy asoslarini topgan. Ma’lumki, Yasoq qoidalariga ko‘ra, “xon” unvoni Chingizzxon avlodи yoki qarindoshi bo‘lgan shaxslarga berilib, ular taxtga o‘tirishga haqli edi. Chingizzxonning onasi qo‘ng‘irot qavmiga mansubligi nuqtayi nazaridan, Xorazm qo‘ng‘irotlari o‘zlarini Chingizzxonning onasiga qarindosh deb bilishgan va ma’lum ma’noda bu ularga davlatni xon unvoni bilan boshqarish imkonini bergen. Odatda, xon o‘limidan so‘ng “valiahd” xon etib saylanar edi. Xon nomzodini ko‘rsatishda mehtar, qo‘shbegi va yasovulboshi katta rol o‘ynaganlar. Hech shubha yo‘qki, yuqori tabaqa a’yonlari va xon urug‘lari tor doirada o‘tkaziladigan saylov avvaldan kelishib qo‘yilgan bo‘ladi. Xonni tayinlash esa rasmiy bir marosimdek gap edi. Yangi xon e’lon qilingach, marhum xon dafn etilib, “davr falonchi xon davri” deb jarchilar jar solardilar. Xorazm xonligida ham xonlarni oq kigiz ustiga o‘tqizib, xon ko‘tarish udumi ado etilgan. Manbalarda Xorazm xonligida xon ko‘tarish marosimi Chingiziy va turkiy an’analar asosida tashkil etilganligi haqida ma’lumotlar mavjud. “Shajarayi turk” asarida “Xorazm xonligining dastlabki hukmdori hisoblangan Elbarsxonning taxtga o‘tirishi munosabati bilan ulug‘ to‘y qilib o‘zbek va sart barchasi yig‘ilib ittifoq birlan Elbarsxonni xon ko‘tardilar” deb qayd etililgan. Elbarsxondan keyin taxtga o‘tirgan jiyani Sultonhoji borasida “yangi shahrdan Vazirga kelturub xon ko‘tardilar” deb ta’kidlangan bo‘lsa, sulolaning yana bir vakili Abulakxon o‘g‘li Hasanqulixon haqida ham asarda “xon ko‘tarib, Urganchni anga berdilar” deb ma’lumot beriladi. Shuningdek, “Shajarayi turk” asarida “oq kigizning bir kunjini Ali Sulton va uch kunjini uch inisi tutub Hojimxonni o‘rta yerda ulturtub, xon ko‘tardilar” degan ma’lumot mavjud. Shu jihatdan, manbalarda keltirilgan xon ko‘tarildi, xon deb e’lon qilindi, podshoh ko‘tardilar, podshohlik toji bilan sarafroz bo‘ldi kabi iboralar ushbu marosim bilan bevosita bog‘liqdir. “Xon ko‘tarish” marosimi boshlanishidan oldin tor doirada maxsus kengash o‘tkazilgan bo‘lib, uni shartli ravishda yopiq mashvarat deb atash mumkin. Chunki unda hukmdor xonardoniga yaqin bo‘lgan eng ishonchli shaxslargina ishtirok etishlari mumkin edi. Aksariyat hollarda, taxt vorisi aniq bo‘lishiga qaramay, uning nomzodi yopiq mashvaratda yana bir bor muhokama qilingan.

Xonning maslahatchilari oqsoqollar bo‘lgan. Manbalarning ko‘rsatishicha, oqsoqollar ma’lum bir fikrga kelganlaridan keyingina ularning qarorini mehtar xonga bildiradi. Kengash majlisi qarornoma tuzmagan, mustaqil qarorlar chiqarmagan. Garchi kengash davlatning turli-tuman ichki va tashqi ishlarini muhokama qila olsada, biroq muhokama qilingan masalalar va kengashning fikri, dastavval, xonning xohish-irodasiga bog‘liq bo‘lgan[3]. Xonlikda inoq unvoni va amali Eltuzardan oldin juda yuqori edi. Inoq xonlarga homiy bo‘lib, 1804-yilgacha, ya’ni “xonbozi” davrida xonlikda to‘la hukmronlik qilardi. Inoq - do‘s, yaqin odam, ishonchli vakil, mahram,

ishonchli mansab egasi hamda o‘z ishiga ishonchli va sadoqatli degan ma’nolarni anglatadi. Odatda, inoqlar eng qudratli o‘zbek urug‘laridan tayin etilgan va ular xonning eng yaqin maslahatchilari bo‘lgan.

Otaliq – urug‘ oqsoqoli. Inoq boshliq to‘daga birlashgan urug‘ boshlig‘i edi. Otaliq “ota” so‘zidan olingan bo‘lib, “ota o‘rniga ota” degan ma’noni ifodalaydi. Uning vazifasi shahzoda yoki xonzodalarini tarbiyalash va ular ixtiyoridagi ulusni balog‘atga yetganlariga qadar boshqarishdan iborat bo‘lgan.

Biy – ko‘chmanchi turkiylarda qadimdan yuqori unvonlardan biri. Otaliqlardan keyin martaba jihatidan biylik keladi. Biy qabila yoki urug‘ning peshvosi, boshlig‘i, rahbari hisoblanardi. Biy - ko‘chmanchi va yarim ko‘chmanchi turkiy xalqlarning, jumladan, o‘zbeklarning urug‘ oqsoqollariga beriladigan unvon.

Devon mirza, kotib, ish yurituvchi. Xon huzurida maxsus devon bo‘lib, u xonning rasmiy kotibi hisoblangan. Arbob saroyda umumiyl tartibni nazorat qilgan. XIX asrda saroyda (Abulg‘oz davridagi kabi) ikki arbob yoki ikki oqsoqol bo‘lgan.

Parvonachi saroyning oliy vazifalaridan. Vazir muovini, farmon ijro qiluvchi. Uning egasi saroyning ichki va tashqi ishlarida ham faol qatnashishi mumkin bo‘lgan. Arzu shikoyatlarni xon huzuriga olib kirib (parvona-kapalakdek) javobini qaytarar edi. Parvonachi xon farmonlarini tegishli kishilarga yetkazib turgan.

**Sud tizimi.** XVI asrdan XX asr 20-yillariga qadar Xorazmda sud tizimi islom dini ahkomlariga suyangan shariat qozilar tomonidan amalga oshirilgan. Shuni qayd etish lozimki, xonlikda sud ixtisoslashtirilgan tizimga ega bo‘lgan. Sud tizimi vakolat doirasi va faoliyat shakliga ko‘ra quyidagilardan tashkil topgan:

- Siyosiy, o‘ta og‘ir va mansabdor shaxslarga oid jinoyatlarni ko‘rvuchi xon sudi;
- Saroy markaziy harbiy sudi;
- Qozi sudlari ustidan boshqaruv va nazorati bilan shug‘ullanuvchi qozikalon;
- Joylardagi quyi shahar (tuman) fuqarolik va jinoyat ishlari bilan shug‘ullanuvchi qozi sudlari;

Sud tizimida o‘rta asrlarga xos xususiyatlar saqlanib qolgan. Jumladan, mahalliy muarrix Muhammad Yusuf Bayoniyning ma’lumot berishicha, xon sudi xonlik tugatilgunga qadar o‘z vakolatini to‘la amalga oshirgan. Joylardagi qozi sudlar (islom sudlari, shariat sudlari) ham to xonlik tugatilgunga qadar faoliyat olib borgan[4]. Shuni ta’kidlash joizki, islom ahkomiga suyangan oliy sud hokimiyati rasman hech qachon xon qo‘lida bo‘lgan emas. Mutlaq hokimlik imtiyozlaridan foydalangan xon faqat oliy jazo hisoblangan o‘lim jazosiga oid hukmlarni millat otasi sifatida ko‘rib chiqqan va unga o‘zgartishlar kiritish huquqiga, qozilarning muhim ishlar yuzasidan hukmlarini tasdiqlash vakolatiga ega bo‘lgan. Demak, sud tizimida oliy hokimiyat adolatilik tamoyilining nazoratini yuritish uchungina xonga tegishli bo‘lgan.

Xon raislik qiluvchi oliy va markaziy mansabdor shaxslardan iborat xon sudi manbalarda turlicha nom ostida qayd etiladi. Jumladan, xon boshliq amaldorlar sudi

deb ham ataladi. Mazkur sudda siyosiy mohiyatlar, umuman davlat va jamiyatga qarshi, shuningdek, shariatni qo‘pol tarzda buzish bilan bog‘liq og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, unda oliv va markaziy boshqaruv amaldorlarining huquqbazarlik va jinoyat sodir etish hollari ham muhokama qilingan va hukm chiqarilgan. Fuqarolarning arzi yuzasidan xon amri darhol chiqarilgan va ijro etilgan. Arz-dod jarayonida aybdorga nisbatan jazo tayinlashda uning moliyaviy ahvoli, ijtimoiy mavqeyi hamda yetkazilgan ziyon natijasida kelib chiqqan oqibat asos qilib olingan. Ishning natijalari bo‘yicha hukm xon tomonidan chiqarilgan[5]. Odatda amaldorlar tomonidan ilgari surilgan xulosa asosida chiqarilgan fatvoga tayanib qilingan hukm xon ishtirokida ijro etilgan. Eng qaltis vaziyatlarda ham o‘lim jazosi yoki afv etish to‘g‘risida qarorni xonlar bamaslahat qabul qiladi. Qozikalon qoshida mahkama (qozixona) tashkil etilgan. Unda kam sonli mirza (kotib)lar faoliyat ko‘rsatgan. Qozikalondan so‘ng sud tizimida mansab darajasiga ko‘ra a’lam, muftiy va mudarrislar turgan. Ular saroyda o‘rin egallagan bo‘lib, diniy qonun-qoidalar va tartiblar to‘g‘risida fikr bildirish huquqiga ega bo‘lgan.

A’lam muftiyalar boshlig‘i hisoblanib, vazifasi fatvolarda keltiriladigan shariat rivoyatlarini tekshirish va ularning asl nusxalarga mosligini aniqlash, so‘ng o‘z muhri bilan tasdiqlashdan iborat bo‘lgan[6].

Muftiyalar shariat bo‘yicha turli ishlar yuzasidan fatvo chiqargan. Besh nafar muftiy aynan saroyda faoliyat ko‘rsatgan. Saroyda mudarrislar, ya’ni ilohiyot fanlaridan madrasalarda dars beruvchi o‘qituvchilar faoliyat yuritgan. Ular diniy ta’limotning yetuk mutaxassislari hisoblangan.

Quyi sud tizimi o‘troq va ko‘chmanchi aholi hududlarida bir muncha farq qilgan. Ko‘chmanchi aholi orasida mahalliy sud ishlarini olib borishda jamoatchilik fikri katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Odat huquqiga ko‘ra, butun aholi nomidan ish ko‘ruvchi biy bir vaqtning o‘zida ham hokim, ham qozi vazifasini bajargan. Oqsoqollar ham o‘z vakolati doirasida, odat normalariga asoslangan holda, sud ishlarini amalgalash qilgan. Ko‘chmanchi aholi hududlari Xorazm tarkibiga kiritilgan davrdan e’tiboran, ular hayotida shariat asosida ish yurituvchi qozi sudlari ham joriy etilgan. Natijada qozilar ko‘chmanchi aholi o‘rtasida urug‘ va qabila oqsoqollari qatorida sud ishlarini olib borgan[7]. Shunday bo‘lsa-da, turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari o‘rtasidagi ishlar aksariyat hollarda oqsoqollar tomonidan odat bo‘yicha hal etilgan.

Xulosa qilib, Xorazm xonligi – o‘zbek davlatchiligi tarixida chuqur iz qoldirgan, mustaqil siyosiy tizim, rivojlangan harbiy tuzilma, o‘ziga xos ma’muriy boshqaruv hamda boy madaniy merosga ega bo‘lgan yirik davlatlardan biridir. Xorazm xonligining turli jabhalardagi faoliyati – davlat tuzilmasi, sud tizimi ham o‘ziga xosdir. Avvalo, xonlikdagi davlat boshqaruvi Chingiziyalar an’anasi va mahalliy o‘troq boshqaruv tizimlarining uyg‘unlashuvidan iborat bo‘lib, bu noyob siyosiy tajriba sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Taxt vorisligi, mansab taqsimoti va xon saylash

marosimlari yuksak darajadagi tartib va qadimiy udumlar asosida olib borilgan. Ayniqsa, “oq kigiz ustiga chiqarib xon ko‘tarish” marosimi Turk dunyosi siyosiy madaniyatining muhim namunasidir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Madirimov X.R. Xiva xonligining davlat tuzumi va huquq manbalari. Yuridik fanlari nomzodi ... diss. - Toshkent, 2012.
2. Allayeva N. Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI – XIX asrlar). – Toshkent 2019.
3. Bekmuhammad U. Xorazm tarixidan sahifalar. Birinchi kitob. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2009.
4. Muhammad Yusuf Bayoniy. Shajaraiy Xorazmshohiy / So‘zboshi N. Jumaxo‘ja, I. Adizova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994.
5. Абулғозий Баҳодирхон. Шажараи турк. Масъул мухаррир ва сўзбоши муаллифи Б. А. Аҳмедов. — Тошкент: Чўлпон. 1992.
6. Akbar Zamonov, Alisher Egamberdiyev “O‘zbekiston tarixi” IV qism. -Toshkent 2022.
7. Vohidov Sh, Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi tarixidan (XIX – XX asr boshlari). – Toshkent: Yangi asr avlod, 2006.